

## **Pedagogik Oliy Ta'lim Muassasalari Boshlang'ich Ta'lim Yo'nalishlarida "Texnologiya Va Uni O'qitish Metodikasi" Fanini O'qitishning O'ziga Xos Xususiyatlari**

**Haydarov Dilshod, Ph.D**

Shog'darovich-JDPU, pedagogika fanlari bo'yich falsafa doktori

Pedagogik oliy ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanini o'qitish birinchi darajali vazifalardan bo'lib, quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha rivojlanadi:

1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorgarligining barcha o'quv fanlari mazmuniga xos rivojlantiruvchi, ishlab chiqarish, texnologik va raqamli axborot yo'nalganligi nuqtai nazaridan yangi metodologiyasini ishlab chiqish talab etiladi.
2. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining atrofda borliqni variativning invariant (invariant - bu ma'lum bir turdagi konvertatsiyalar paytida o'zgarmagan xususiyatdir) usul va vositalarini egallash hamda boshqa fanlarni o'rganishda o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatini ta'minlashga mo'ljallangan "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" yangi o'quv fani doirasida mehnat ta'limidan texnologik ta'limga o'tish.
3. Boshlang'ich ta'lim fakultetida "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" propedevtik (Propedevtika (yunoncha: praidithyō - "oldindan o'rgatish") didaktik atama bo'lib, fanga kirish, dastlabki kirish kursi bo'lib, tizimli ravishda ixcham va elementar shaklda taqdim etiladi.) to'garakni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Unda boshlang'ich sinf o'qituvchilari tushunarli misollar yordamida materiallarni, quvvatni, axborotni, biologik ob'ektlarni qayta variativ texnologiyalari bilan, ayrim muloqot texnologiyalari bilan tanishishlari mumkin bo'ladi. Buning uchun moddiy ob'ektlarni yaratishda ularning funksional mustaqilligiga alohida e'tibor beriladi.

Hozirgi davrda texnologiya fanini o'qitish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot ishlar "texnologiya" tushunchasini boshqa sohalarida keng yoritilganligiga tayanadi.

Bugungi kunda "texnologiya" tushunchasi pedagogikada ham ko'p ishlatiladi, biroq bir ma'noli talqinga ega emas.

Nihoyat, "texnologiya" deganda qog'ozga, gazlamaga, yog'ochga, oziq-ovqat mahsulotlariga va hokazolarga ishlov berishning muayyan texnologiyalari tushunilib kelingan.

Fan sifatida "Texnologiya va uni o'qitish metodikasi" insonning moddiy olamdagi variativ asosida faoliyati yotadi. Shu faoliyat asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari jamiyat ehtiyojlariga javoban turli materiallar hamda axborotlar bilan ishlash orqali loyihalashtirish

va ishlab chiqarish sohasidagi malakalarini rivojlantirish uchun ta'lim berish muhitini yaratish maqsadiga qaratilgan. Texnologik ta'lim har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining texnologik yaratuvchanligining individual xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

“Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” fanining konseptual asoslari pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi mehnat ta'limini o'rganish jarayonini an'anaviy yondashuvdan farq qiladi.

“Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” fanining maqsadi har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish uchun asoslangan qarorlar qabul qila olish va zarur harakatlarni tanlash hamda ob'ektlar va tizimlarni ishlab chiqish va yaratish orqali odamlar ehtiyojini to'la qondirish maqsadida turli material va vositalar bilan amaliy ishlash malakalarini, kognitiv ko'nikmalariga ega bo'lgan ijodiy shaxs sifatida rivojlantirish sanaladi.


Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” o'qitish sohasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini hamda mahoratlarini o'zaro bog'liqligi asosida ularning texnologik loyihalash kompetentligini ta'minlaydi. U texnologik ta'limning fanga kirish jarayonini (propedevtik) negizi bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida funksional texnologik savodxonlikni rivojlantirish orqali munosib raqabatbardosh kadr bo'lib yetishish hamda ta'lim tizimida kreativlik va variativlik faoliyati bilan bog'liq holda tayyorlash vazifalarini bajaradi.

“Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” fani OTMlarida tarkibiy qism ko'rinishida:

- texnologiya fanining tarixi va rivojlanish darajalari haqidagi tushunchalar;
- ob'ektlarni talabalarning zamonaviy ehtiyojlariga variativlik vositalari va usullarini o'rganish;
- texnologiyaning hamma jabhadagi pedagogik, iqtisodiy, siyosiy va ekologik muammolariga ijobiy ta'siri.

Texnologik loyihalashning bunday tuzilmasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining texnologik ta'lim olishdagi zamonaviy bilimlarini to'liq tarzda aks ettiradi, deb hisoblanadi. Bu pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining texnologik tayyorgarligi dasturlarini tahlil qilish uchun asos sifatida qabul qilinadi.


“Texnologiya” fanining o'quv dasturining predmetlar olami bilan bog'langan va amaliy mazmuni “Yasash”, “Chizish”, “Rang”, “Qurish”, “Yaratish”, “Tayyorlash” kabi tushunchalari orqali belgilangan. Fanning o'quv dasturining uslubiy asosi loyihalash uslubi bo'lib, o'zida yaratish-qurish va chizish yondashuvlarni birlashtiradi, ya'ni alohida buyumlar yasash o'rniga, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yaxlit predmet muhitini tushunib yetadi va ishlab chiqadi.



**Texnologiya fanining mazmuni.**

Shu yondoshuvdan kelib chiqib, loyiha buyumni mavhum tasavvur etishni beruvchi tushunchalar tizimi, deb tushuntiriladi; yigʻma tahlil natijasida olingan moddiy jamlanma xususiyatlari majmuasi, u yigʻma tahlil natijasida olinadi va ijodiy yoki ijro etish niyatini ifodalaydi. U holda loyihalashga harakatning ayrim usulini tanlash sifatida qaraladi, xususiyl holda - tizimli harakatning mantiqiy asosi sifatida tuzilishidir. Loyihalash mahsuli – loyiha - loyihachi tomonidan bunyod etilgan yangi bino, u holda loyihalash jarayonining oʻzini ijodiyot tarzida qarash mumkin, yaʼni biror yangi narsani hosil qilish jarayoni. Ijodiyotning mohiyati falsafada oʻrganiladi. Dialektik materializm nuqtai nazaridan, «ijodiyot - kishining haqiqatning obʻektiv qonunlari asosida odam va odamzod maqsadi va ehtiyojiga muvofiq tabiiy va sotsial dunyoni oʻzgartiruvchi faoliyatidir». Ijodiyot oʻzining takrorlanmaslik, asillik va ijtimoiy-tarixiy noyobligida tavsiflanadi. Ijodga, qoʻyilgan vazifani amalga oshirish maqsadi boʻlgan ixtirochilikday pragmatik qarash ham bizda tuzish-qurishdek tuyuladi.

Texnologiya tushunchasiga oid tahlillar asosida uni taʼriflashda qoʻllash mumkin boʻlgan muhim tushunchalarni quyidagicha tasvirlash mumkin



### **Texnologiya soʻzini taʼriflash uchun tushunchalar.**

“Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” fanini taʼlim sohasiga joriy qilishda asosiy boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining oʻrganilishi lozim boʻlgan texnologik loyihalash kompetensiyalarini oʻzlashtirish – bu texnologiyada faoliyatli yondashuvni takomillashtirishga alohida eʼtibor qaratish kerakligi haqida tavsiya beriladi. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining texnologik koʻnikmalarga ega qoʻl mehnatini reproduktiv usul bilan foydali narsalar yasashga moʻljallangan, hamda yoʻnaltirgan sharoitlarda shakllangan kasbiy tayyorgarligini tarkibiy qismi sanaladi. Pedagogika oliy taʼlim muassasalarida “Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” fanini oʻqitishga texnologik jihatdan koʻrmagan, fanning oʻquv dasturining mohiyatini, oʻqitish maqsadini bilmaydigan boshlangʻich sinf oʻqituvchisi oʻquvchilarining zamonaviy texnologik taʼlimi uchun shart-sharoitlarni yarata olmaydi. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisida texnologiyani oʻrganishni takomillashtirishni kasbiy tayyorgarligi va qayta tayyorgarligidan boshlash zarurligi shubhasizdir.

Shuni aytishimiz mumkinki, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini texnologiyani bugungi kundagi tushunish darajasida oʻqitishga tayyorlashda oliy taʼlim muassasalarida malaka talablari boʻyicha boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari “Texnologiya” taʼlim sohasini zamonaviy talablarga mos boʻlgan yuqori darajada oʻrganishga qaratilgan boʻlishi shart.

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining texnologiya mazmunini shaxsga yoʻnaltirilgan oʻqitishning mavjud ehtiyojlaridan ortda qolayotganini taʼkidlagan holda, pedagogika oliy taʼlim muassasalariga quyidagilarni tavsiya etadi:

Texnologiya oʻqituvchilarining fanni oʻqitish va ayniqsa maktab oʻquvchilarining loyihalash kompetensiyalariga rahbarlik qilish metodikasi boʻyicha tayyorgarligini fanlararo aloqalar hamda axborot texnologiyalari, iqtisodiyot, menejment, kasb tanlash va ekologiya boʻyicha mazmuni tanlash lozim.

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining texnologik loyihalash kompetentligi oʻ boshlangʻich sinflarda texnologiya oʻqitish metodikasini oʻz ichiga oladi. Texnologiya ham maxsus oʻrganishni talab qiluvchi keng bilimlar sohasi sanaladi. Tuzilishining har bir qismi umumiy va maxsus qismlarga ega: texnologik komponent – umumtexnologik (umumiy texnologik tushunchalar va kreativlik faoliyatidagi oʻxshash komponentlar) va maxsus texnologik, texnologiya va uni oʻqitish metodikasi – umumdidaktik va xususiy-uslubiy.

Shunday qilib, texnologik taʼlim boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining zamonaviy madaniy saviyasini, insonning oʻzgartiruvchilik xislatlarini ochib beradigan fan ekanligini koʻrib chiqdik. Boʻlgʻusi texnologiya (boshlangʻich sinf) fani oʻqituvchilarining texnologik bilimlar doirasini kengaytirilib, mehnatning yangi usullarini hamda asbob-uskunalarini, materiallarini, turlarini oʻzlashtiradilar. “Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi” fani integratsiyalashgan xususiyatga ega. Integratsiya moddiy olamning turli hodisalari bilan tanishishdan iborat. Bu hodisalar ularga xos boʻlgan, inson faoliyatini amalga oshirish usullarida, qogʻoz, gazlama, yogʻoch, xom ashyo, harakat va axborotni variativ texnologiyalarida namoyon boʻladigan umumiy qonuniyatlari bilan birlashgandir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Павлова М.Б., Питт Д. Образовательная область "Технология": Теоретические подходы и методические рекомендации. - Йорк: Технологическое и предпринимательское образование в России. — 1997. — 81 с
2. Sharipov Sh. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti.Diss.... ped. Fan. dok. – T., 2012. – 307 b.
3. Drescher 1996; Niethammer 1995; Fischer 2000; Schlausch 1997; Bannwitz & Rauner 1993; Spöttl 2000; Rauner & Spöttl 2002)
4. Mavlonova R.A., Sanoqulov X.R., Xodiyva D.P. “Mehnat va uni o‘qitish metodikasi” O‘quv qo‘llanma. 2007 yil TDPU.
5. Muslimov N.A., Urazova M.B. Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati.-T..2012.-97 b.